

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
FARMAKOLOGIYA, KLINIK FARMAKOLOGIYA VA TIBBIYOT
BIOTEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI**



**“KLINIK FARMAKOLOGIYA” MODULIDAN
O`QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	900000 – Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot
Ta‘lim sohasi:	910000 – Sog‘liqni saqlash
Ta‘lim yo‘nalishlari:	60910100 – Stomatologiya

Andijon 2025

Fan/modul kodi KF 15608	O'quv yili 2025-2026	Semestr 6	Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Xaftadagi dars soatlari 4	
1. Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
“Klinik farmakologiya”	60	60	120	
2. I. Fanning mazmuni.	<p>Ushbu modul dastur klinik farmakologiyaning asosiy bo‘limlarini o‘z ichiga oladi va tibbiyot oliy muassasa talabalariga dori vositalarining farmakodinamikasi, farmakokinetikasi, nojo‘ya ta’siri va o‘zaro ta’siri bo‘yicha olgan bilimlarini bemorlarda eng samarali va xavfsiz terapiya, ya’ni ratsional farmakoterapiya o‘tkazish maqsadida qo‘llay olish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni egallab olishga imkoniyat yaratadi.</p> <p>Fanni o‘qitishdan maqsad – Muayyan patologik jarayonda dori vositalarining klinik farmakologik xususiyatlarini e’tiborga olgan holda eng samarali va xavfsiz preparatni to‘g‘ri tanlash hamda o‘tkazilayotgan davolashning samaradorligini va havfsizligini baholovchi mezonlar bilan ta’minlash bo‘yicha ko‘nikmalarni o‘rgatish.</p> <p>Fanning vazifalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Umumiy klinik farmakologiyaning asosiy tamoyillarini; - stomatologiyada eng keng qo‘llaniladigan dori vositalarining klinik-farmakologik xususiyatlarini; - dori vositalari farmakodinamikasi va farmakokinetikasini; - muayyan guruh dori vositalari bilan davolash samaradorligi va xavfsizligini baholash uchun kerakli tekshiruvlar majmuini tanlashni va olingan natijalarni tahlil qilishni; - bir qator ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda dorivositalarining dozalash tartibini belgilashni; - dori vositalari nojo‘ya ta’sirlarini oldindan bila olish, ularni aniqlash, oldini olish va yuzaga kelgan nojo‘ya ta’sirlarni bartaraf etishni; - dori vositalarini homiladorlik, emizikli davrda, bolalarda va keksa yoshdagi bemorlarda qo‘llanilish xususiyatlarini; - dori vositalari o‘zaro ta’siri natijalarini hisobga olgan holda preparatlarni ratsional kombinatsiyalashni o‘rgatishdan iborat. 			

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari ma'zmuni)

3-kurs, 6-semestr	
1.	<p>1-mavzu. “Klinik farmakologiya” modulining mazmuni, vazifalari. Farmakodinamikaning asosiy masalalari. <u>Farmakologiya, dori vositalarini ishlab chiqish va klinik farmakologiyaga kirish.</u></p> <p>Klinik farmakologiya modulining qisqacha tarixi. Klinik farmakologiya modulining maqsad va vazifalari. Klinik farmakologiya modulining boshqa tibbiy modullar ichida tutgan o'ri. Farmakodinamika tushunchasi.</p> <p>Farmakodinamikaning baholash usullari. Dori vositalari ta'sir mexanizmi turlari.</p> <p>Farmakologiya asoslarini tushunish. Dori vositalarini klinikagacha bo'lgan va klinik tekshiruvlari, tibbiyotdagi o'ri Klinik farmakologiya fanining asoslari va asosiy vazifalari.</p> <p><i>(AQSh Ogayo shtati universiteti tibbiyot yo'nalishi klinik farmakologiya fani bo'yicha sillabusi)</i></p>
2.	<p>2-mavzu. Dori vositalar farmakokinetikasi tushunchasi, asosiy farmakokinetik parametrlar va ularning klinik ahamiyati. <u>Dorilarning so'rilishi va ularning biologik o'zlashinuvchanligi.</u></p> <p>Farmakokinetikaga asosiy tushuncha berish, asosiy farmakokinetik parametrlar (so'rilish, taqsimlanish, oqsil bilan bog'lanish, eliminatsiya) va ularni klinik ahamiyati. Dorilarni biotransformatsiyasi, metabolizmi. Ularning organizmdan chiqarilish yo'llari. DVlarning farmakokinetikasiga ta'sir etuvchi omillar.</p> <p>Dorilarni organizmga kiritish yo'llari va so'rilishi. Dori moddalarining so'rilish yo'llari va unga ta'sir etuvchi omillar. Dori vositalarni bioerishuv-chanlik, muvozanatli konsentratsiyasi, bioekvivalentligi.</p> <p><i>(AQSh Ogayo shtati universiteti tibbiyot yo'nalishi klinik farmakologiya fani bo'yicha sillabusi).</i></p>
3.	<p>3-mavzu. Dori vositalarining o'zaro ta'sirlari.</p> <p>Dori vositalarining o'zaro ta'siri. Antagonizm va sinergizm haqida tushuncha. Dori vositalari o'zaro ta'siri turlari. Farmatsevtik, farmakokinetik, farmakodinamik o'zaro ta'sir.</p>
4.	<p>4-mavzu. Dori vositalarining nojo'ya ta'sirlari. <u>Dori vositalarining salbiy reaksiyalarini klinik baholash.</u></p> <p>Nojo'ya ta'sirlarning zamonaviy tasnifi. Dori vositalari nojo'ya ta'siri monitoringi. A, B, C, D tipidagi nojo'ya ta'sirlar. Aniqlangan nojo'ya ta'sirlarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar. Dori vositalari</p>

	<p>nojo'ya va salbiy ta'sirlarini aniqlash usullari. Dori vositalarining nojo'ya ta'siri va ularda ko'rsatiladigan yordam tamoyillari. <i>(AQSh Ogayo shtati universiteti tibbiyot yo'nalishi klinik farmakologiya fani bo'yicha sillabusi)</i>.</p>
5.	<p>5-mavzu. Homilador va emizikli ayollarda dori vositalarini qo'llash xususiyatlari. <u>Homilador va emizikli ayollarda dori terapiyasi.</u></p> <p>Homiladorlarda dori vositalari klinik farmakologiyasi o'zgarishining amaliy ahamiyati, dori vositalarining homila va chaqaloqlarga ta'siri. Homiladorlikda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nojo'ya ta'sirlar tasnifi.</p> <p>Homiladorlarda samarali va havfsiz farmakoterapiya o'tkazishga ta'sir etuvchi omillar. Emizikli va xomilador ayollarda dorilar kinetikasining o'ziga xosligi. Ularda dori vositalarini tayinlash algoritmi.</p> <p><i>(AQSh Ogayo shtati universiteti tibbiyot yo'nalishi klinik farmakologiya fani bo'yicha sillabusi)</i></p>
6.	<p>6-mavzu. Klinik farmakologiyaning bemor yoshiga bog'liq jihatlari. <u>Kattalar populyatsiyasida dozani tanlash va optimallashtirish.</u></p> <p>Yosh bolalar va qariyalarda dorilar kinetikasi xaqida tushuncha. Ularda dori vositalarini tayinlash algoritmi. Kexsa bemorlarda farmakoterapiya o'tkazish tamoyillari va ba'zi sotsial masalalar (klinik farmakologiya nuqtai nazaridan).</p> <p>Kattalar populyatsiyasida dori vositalarni dozalash tamoyillari. Kexsa yoshdagi bemorlarda farmakoterapiya o'tkazish tamoyillari. Keksalar farmakoterapiyasi muammosining dolzarbligi. <i>(AQSh Ogayo shtati universiteti tibbiyot yo'nalishi klinik farmakologiya fani bo'yicha sillabusi)</i></p>
	Jami:

**KLINIK FARMAKOLOGIYA FANI BO'YICHA AMALIY
MASHG'ULOTLAR REJASI**

1.	Yurak glikozidlari va kardiotonik dori vositalarining klinik farmakologiyasi.
2.	Diuretik dori vositalari va diuretik ta'sirga ega fitopreparatlarning klinik farmakologiyasi.
3.	Antiaritmik dori vositalar klinik farmakologiyasi.
4.	Gemostaz tizimiga ta'sir etuvchi antitrombotik dori vositalarining klinik farmakologiyasi.
5.	Gemostaz tizimiga ta'sir etuvchi gemostatik dori vositalarining klinik farmakologiyasi.
6.	Qon tomirlar tonusiga ta'sir etuvchi antigipertenziv dori vositalarining klinik farmakologiyasi.

7.	Qon tomirlar tonusiga ta'sir etuvchi antigipotenziv dori vositalarining klinik farmakologiyasi.
8.	Antibiotiklar klinik farmakologiyasi.
9.	Turli kimyoviy tuzilishga ega antibakterial dori vositalari klinik farmakologiyasi
10.	Yallig'lanishga qarshi nosteroid dori vositalarining klinik farmakologiyasi. Umumiy va mahalliy og'riq qoldiruvchi dori vositalari klinik farmakologiyasi.
11.	Yallig'lanishga qarshi steroid dori vositalari va immunokorrektorlar klinik farmakologiyasi.
12.	Bronx o'tkazuvchanligiga tasir etuvchi dori vositalarining klinik farmakologiyasi. Bronxodilatator, mukolitik va balg'am ko'chiruvchi fitopreparatlar.
13.	Bronxoobstruktiv sindromni davolashda qo'llaniladigan dori vositalarini ratsional qo'llashga klinik-farmakologik yondoshuv.
14.	Me'da-ichak yo'llari motor-evakuator va sekretor faoliyatiga ta'sir etuvchi dori vositalarining klinik farmakologiyasi.
15.	Metabolizmni korreksiyalovchi dori vositalar klinik farmakologiyasi. Temir preparatlarining klinik farmakologiyasi.
	Jami:

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Modul bo'yicha mashg'ulotlar 50% nazariy (ma'ruza va amaliy mashg'ulot) va 50% amaliy qism (o'quv klinik amaliyot)dan iborat bo'lgan holda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.
- Tez yordam vositalarini qo'llay olish ko'nikmalarini o'rgatish.

Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yhati:

Klinik farmakologiya moduli bo'yicha o'quv klinik amaliyotini o'tish

davridatalabalar quyidagi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan.

1. Anafilaktik shokda shoshilinch dorili yordam ko'rsatish;
2. Gipertonik krizda birinchi yordam ko'rsatish;
3. Bronxoobstruktiv sindromda birinchi yordam ko'rsatish.

Ushbu amaliy ko'nikmalarni bajarishda va o'zlashtirishda Germaniyaning "Lecturio GmbH"

(<https://www.lecturio.com/courses/medical>) meditsina saytidan foydalanish tavsiya etiladi.

III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

1. Antigistamin dori vositalarining klinik farmakologiyasi.
2. Balg'am ko'chiruvchi va mukolitik vositalarning klinik farmakologiyasi. Yo'talga qarshi preparatlarning kl-farmakologik tavsifi.
3. Vitaminlar, kofermentlar va temir preparatlarining klinik farmakologiyasi.
4. Antianginal va gipolipidemik dori vositalarining klinik farmakologiyasi.
5. Gepatotrop va o't haydovchi dori vositalarining kl. farmakologiyasi. Gepatoprotektorlar haqida tushuncha. **Jigar va dorilar.**
6. Viruslarga qarshi dori vositalarining klinik farmakologiyasi.
7. Zamburug'larga qarshi dori vositalarining kl. farmakologiyasi.
8. Ferment preparatlarining klinik farmakologiyasi.
9. Proteaza ingibitorlarining klinik farmakologiyasi.
10. Adaptogen ta'sirga ega fitopreparatlar va boshqa xalq tabobati vositalari.

Jami:

Ushbu mavzular bo'yicha referativ dokladlar, maqola, tezis, taqdimot tayyorlash ko'zda tutilgan.

Mustaqil o'zlashtiradigan mavzular bo'yicha talabalar quyidagilardan foydalanadi:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyatsion zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;
- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida

auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqilo'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalarni yechish;
- Keys (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida Case-study) yechish.
- modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va h.k.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Mustaqil ishni bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va o'quv qo'llanmalar, metodik qo'llanma va ko'rsatmalar, ma'lumotlar to'plami va banki, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar, Internet tarmog'idagi tegishli ma'lumotlar, berilgan mavzu bo'yicha avval bajarilgan ishlar banki va boshqalar xizmat qiladi.

Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat: yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- kerakli ma'lumotlarni izlab topishning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalarini va manzillaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;
- berilgan topshiriqning ratsional yechimini belgilash;
- ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oyani asoslash va

mutaxassislar jamoasida himoya qilish.

3. IV. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalar

Talaba bilishi kerak:

- asosiy guruh dori vositalarining farmakologik xarakteristikasi, ta'sir mexanizmi, dozalash tartibi, qo'llanilishiga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar, klinik reseptura **haqida tasavvurga ega bo'lishi**;
- asosiy guruh dori vositalarining klinik-farmakologik xarakteristikasini (farmakodinamikasi, farmakokinetikasi, nojo'ya ta'siri va o'zaro ta'sirlarini);
- bir qator ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda dori vositalarining qo'llanilishiga ko'rsatmalarni aniqlashni;
- dozalash tartibini belgilashni;
- o'tkazilayotgan farmakoterapiyaning samaradorligi va xavfsizliginazorat qilish usullarini;
- dori vositalarining yuzaga kelishi mumkin bo'lgannojo'ya ta'sirlarini aniqlashni va ularni bartaraf etish choralarini;
- o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda dori vositalarining ratsionalkombinatsiyalarini qo'llashni;
- dori bilan davolash anamnezi va allergologik anamnez yig'ishni vaolingan natijalarni tahlil qilish;
- samarali va xavfsiz farmakoterapiya o'tkazish maqsadida dori vositasini tanlash algoritmini tuzishni va dozalash tartibini belgilashni;
- patologik jarayon va qo'llanilayotgan dori vositalarining klinik- farmakologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, dalillarga asoslangan tibbiyot asosida o'tkazilayotgan farmakoterapiyani ekspert baholashni;
- farmakoterapiya samaradorligi va havfsizligini baholashning ishonarli va qulay usullarini tanlashni va ularni amalga oshirishni, olingan natijalarni tahlil qilishni;
- homilador va emizikli ayollar, bolalar va chaqaloqlar, keksa bemorlarni davolashda xavfsiz va effektiv dori vositalarni **bilishi va ulardan foydalana olishi**;
- dori vositalarining nojo'ya ta'sirlarini o'z vaqtida aniqlash va ularni korreksiya qilish;
- dori anafilaktik shokida shoshilinch yordam ko'rsatish;

- umumiy amaliyot shifokori kvalifikatsion xarakteristikasining I- II-kategoriyasi bo‘yicha bemorlarni ratsional davolash;
- resept yozib berish *malakalariga ega bo‘lishi kerak.*

Umumiy kompetensiyalar- UK

UK 1. Abstrakt fikr yuritish, hodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyati;

UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;

UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;

UK 4. O‘z-o‘zini rivojlantirishga, anglashga, o‘qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;

UK 5. Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo‘llashga tayyorlik;

UK 6. Favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo‘llashga tayyorlik;

Umumiy kasbiy kompetensiyalar-UKK

UKK 1. Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini davolash va profilaktika standartlari talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorgarlik.

UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og‘zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;

UKK 3. Tibbiy hujjatlarni yuritishga tayyorgarlik;

UKK 4. Kasbiy muammolarni hal qilishda dori vositalarini va ularning kombinatsiyalarini tibbiy maqsadlarda ishlatishga tayyorlik;

UKK 5. Bemorlarga birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatishni tashkil etish vadastlabki tibbiy sanitar yordam ko‘rsatishni ta‘minlashga tayyorlik;

UKK 6. Tibbiy yordam ko‘rsatishda ko‘zda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik;

4. V. Ta‘lim texnologiyalari va metodlari.

- ma‘ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- tezkor savol-javoblar;
- guruxlarda ishlash;
- jamoa bo‘lib ishlash;
- taqdimotlar tayyorlash;

-kasallik tarixini yozish;

5. VI. Talablar kreditlarni to'plash tartibi.

Klinik farmakologiya moduli bo'yicha nazorat turlari va nazorat mezonlari haqidagi ma'lumot birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi. Talabalarning modul bo'yicha o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- joriy nazorat (JN);
- yakuniy nazorat (YaN).

VII-VIII semestr – 4.0 kredit

JN – 4,0

YaN – 0 kredit (o'tilishi majburiy).

Modul bo'yicha talabanning semestr (o'quv yili) davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi va baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi.

Modulga ajratilgan 4.0 kreditni talaba JN davomida yig'adi.

No	Baholash turi	Maksimal ball	Kredit soni
1.	Auditoriyadagi o'quv mashg'ulotlarni baxolash (JN)	100	4.0
2.	Yakuniy nazorat (YaN) (o'tilishi majburiy).	100	0
	JAMI	100	4.0

JORIY NAZORAT (JN) Joriy nazoratda talabanning modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Klinik farmakologiya moduli bo'yicha JN og'zaki, o'rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, mulyaj va modul tomlarda ishlash ma'lumotlarini o'rganish, bemorlar bilan ishlash, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.

Baholashda talabanning bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, kompetensiyalarni egallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi.

Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart. Maksimal

ball 100, o'tish bali 55 ball.

Joriy nazorat uchun 2 kredit ajratilgan.

Talaba har bir bo'limdan belgilangan kreditlarni to'plagandan keyingina yakuniy nazoratga kiritiladi.

Joriy nazoratda saralash (o'tish) ballidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy nazorat uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi. Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida modul bo'yicha joriy nazoratda saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan kursdan kursga qoldiriladi.

Modul bo'yicha talaba reytingi quyidagicha aniqlanadi:

Ball	EC TS baho	ECTS ning ta'rifi	Baho	Ta'rifi
86-100	A	"a'lo" - a'lo natija, minimal hatoliklar bilan	5	a'lo

			<p>amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi;</p> <p>modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlarni to‘liq va chuqur o‘zlashtirishi;</p> <p>modul bo‘yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo‘llay olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo‘lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo‘lishi lozim;</p>			
81-85	B	"juda yaxshi" - o‘rtadan yuqori natija, ayrim hatoliklar bilan	<p>modul dasturining barcha bo‘limlari bo‘yicha tizimli, to‘la va chuqur bilimga ega bo‘lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o‘z o‘rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to‘g‘ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o‘z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo‘yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standard vaziyatlarda muammolarni o‘quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko‘nikmalarni mustaqil ravishda to‘liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to‘liq egallashi;</p> <p>amaliy mashg‘ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to‘g‘ri (lekin doim ham ratsional emas) qo‘llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o‘zlashtirishi;</p> <p>o‘rganilayotgan modul bo‘yicha nazariyalar, konsepsiyalar va</p>	4	yaxshi	

			<p>yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>			
71-80	C	"yaxshi" - o'rtacha natija, sezilarli hatoliklar bilan	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi,</p>			

			vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;		
60-70	D	"qoniqarli" - sust natija, qo'pol kamchiliklar bilan	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida yetarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil, ammo hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>	3	Qoniqarli
55-59	E	"o'rta" - minimal natijaga teng	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo'pol xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va hatolarga yo'l qo'yganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil emas va hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil emas va</p>		

			<p>hatoliklar bilan egallashi; modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standard (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi; pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi; o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>			
31-54	FX	"qoniqarsiz" - minimal darajadagi bilim-larni olish uchun qo'shimcha mustaqil o'zlashtirishi zarur	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.</p>	2	Qoniqarsiz	
0-30	F	"mutloq qoniqarsiz" to'liq qayta o'zlashtirishi lozim	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.</p>			

YAKUNIY NAZORAT (YaN)

JNga ajratilgan kreditlarni to'liq to'plagan talaba YaNga kiritiladi.
YaN modul yakunida OSCE + amaliy ko'nikma shaklida o'tkaziladi.

Bunda talabalarning kompetensiyalarni, amaliy ko'nikmalarni egallash darajasi va nazariy bilimlari tekshiriladi. OSCEda 8 ta nazariy savol va 2 ta amaliy ko'nikma beriladi, har biriga 10 ball beriladi. Maksimal ball 100, o'tish bali 55 ball. YaNda saralash balini (55) yig'a olmagan talaba YaNdan o'tmagan va modulni o'zlashtirmagan deb hisoblanadi (JNda to'liq kreditni yiqqan bo'lsa ham).

Ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi va yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi.

Kasalligi sababli yakuniy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida yakuniy nazoratda saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan kursdan kursga qoldiriladi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, modul bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

6.

Asosiy adabiyotlar:

1. Mavlyanov I.R., Kats P.S., Maxkamova R.K. Klinik farmakologiya, Darslik. Toshkent. 2012 y.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mamatov Yu. Klinik farmakologiya, Darslik. Toshkent. 2010 y.

2. Белоусов Ю.Б. Клиническая фармакология и фармакотерапия, Учебник. Москва. 2000 г.

3. Кулес В.Г. Клиническая фармакология, Учебник. Москва. 2012 г.

4. Лоуренс Д.Р., Бенитт П.И. Клиническая фармакология в 2 томах, перевод сангл., Учебник. Москва. 2012 г.
5. Бертрам Г., Кацунг П. Базисная и клиническая фармакология в 2-х томах, Учебник. Москва. 2015 г.
6. Клиническая фармакология: учеб. для студентов мед. вузов / ред. В. Г. Кулес. - 5-е изд., перераб. и доп. ГЭОТАР-Медиа, 2017.
- 7. AQSh Ogayo shtati universiteti tibbiyot yo'nalishi klinik farmakologiya fani bo'yicha sillabusi – 2024-2025 o'quv yili uchun.**
- 8. AQSh Florida shtati universiteti klinik farmakologiya fani bo'yicha sillabusi.**
9. Drusano GL. Antimicrobial pharmacodynamics: critical interactions of 'bug and drug'. Nat Rev Microbiol 2004; 2: 289-300.
10. Gabrielsson J, Weiner D. Pharmacokinetic & Pharmacodynamic Data Analysis: Concepts & Applications; Chapter Modeling Strategies, Swedish Pharmaceutical Press; 4 edition, 2007, ISBN-13 978 91 9765 100 4.

Kafedrada yaratilgan o'quv qo'llanma, elektron darsliklar:

1. Клиническая фармакология бета-лактамовых антибиотиков. А.А. Звезгинцева, М.Л. Максимов, О.О. Эшонхужаев. Учебное пособие. Казань, 2022 г.
2. Современные антигистаминные лекарственные средства. М.Л. Максимов, Е.В. Каннер, О.О. Эшонхужаев. Учебное пособие. Казань, 2022г
3. Aritmiyaga qarshi dori vositalarining klinik farmakologiyasi. D.I. Kurbanova. O'quv qo'llanma. – Andijon. 2023 yil.
4. Antibakterial dori vositalarining klinik farmakologiyasi. Z.O. Qosimov. O'quv qo'llanma. - Andijon, 2023 yil.
5. Farmakologiya. D.I. Kurbanova. Darslik Andijon: INNOCENTER nashriyoti, 2024 – 388 b.
6. Клинико-фармакологический подход к рациональному лечению инфекционных заболеваний. Клиническая фармакология антибактериальных лекарственных средств. О.О.Эшонхужаев. Учебное пособие. Андижан, 2024г.
7. Tromboembolik sindrom va turli qon ketishlarda qo'llaniluvchi dori vositalarining klinik farmakologiyasi. D.I. Kurbanova. O'quv qo'llanma. – Andijon. 2024 yil.
8. Me'da-ichak yo'llari motor-evakuator va sekretor faoliyatiga ta'sir etuvchi dori vositalarining klinik farmakologiyasi. A.M. Bazarova, Z.O. Qosimov. O'quv qo'llanma. - Andijon, 2024 yil.

	<p>9. . Qon-tomirlar tonusiga ta'sir ko'rsatuvchi dori vositalarni qo'llanilishiga klinik-farmakologik yondoshish. G.J. Jo'rayeva, S.B. Parpiyeva. O'quv qo'llanma. - Andijon, 2024 yil.</p> <p>10. Yallig'lanishga qarshi dori vositalari. Z.O. Qosimov. O'quv qo'llanma. - Andijon, 2025 yil.</p> <p>11. Stomatologiyada antibakterial dori vositalarining klinik farmakologiyasi. D.I. Kurbanova, A.A. Sabirov, X.Yu. Ababakirov. O'quv qo'llanma.- Andijon, 2025 y.</p> <p style="text-align: center;">Internet saytlari:</p> <p>1.https://www.gla.ac.uk/postgraduate/taught/clinicalpharmacology/</p> <p>2.https://pharmacy.osu.edu/sites/default/files/MSTP%20CLN%20Sample%20Plan.pdf?utm_source=chatgpt.com</p> <p>3.https://ocreco.od.nih.gov/pdfs/PCP-Syllabus-2024-2025_final_508.pdf?utm_source=chatgpt.com</p> <p>4.https://graduateeducation.pharmacy.ufl.edu/wordpress/files/2025/01/PHA6133-Translational-Clinical-Pharmacology-2025.pdf</p> <p>5. https://www.lecturio.com/courses/medical</p> <p>6. https://www.lecturio.com/courses/medical/pharmacology/</p> <p>7. www.ziyonet.uz</p> <p>8. www.lex.uz</p> <p>9. www.uzpharm.uz</p> <p>10. www.doridarmon.uz</p> <p>11. www.tsdi.uz</p> <p>12.www.milliytibbiyot.uz</p>
7.	<p>Andijon davlat tibbiyot instituti Farmakologiya, klinik farmakologiya va tibbiyot biotexnologiyalari kafedrasini tomonidan ishlab chiqilgan. OTM kengashining 2025 yil “_27_”_08_ dagi №_1_ sonli qarori bilan tasdiqlandi.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>D.I. Kurbanova - Farmakologiya, klinik farmakologiya va tibbiyot biotexnologiyalari kafedrasini mudiri</p> <p>O.O. Eshonxo'jayev - Farmakologiya, klinik farmakologiya va tibbiyot biotexnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Z.S. Saloxiddinov ADTI I OSh tayyorlash kafedrasini mudiri, professor</p> <p>O.A. Siddiqov SamDTU Klinik farmakologiya kafedrasini mudiri, PhD</p>